

**AUTIZM NAMOYON BO`LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

***Ikramova Dilshoda***

*NamDPI maxsus pedagogika yo`nalishi tatalabasi*

*Ilmiy rahbar: D.D.Oribboeva*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada autizm sindromiga chalingan bog`cha yoshidagi bolalar psixologiyasi ular bilan olib borilayotgan korreksion ishlar, bu borada ilmiy tadqiqot olib borayotgan pedagog va psixologlarning ishlari to`g`risidagi ma`lumotlar yeritilgan

**Kalit so`zlar:** Autizm, psixologik tashxis, autizm belgilari, Leo Kanner, yevvoyilik.

Bugungi kunda butun dunyoda keng tarqalgan muammolardan biri turli yesh davrlarida uchrayotgan autizm muammosi sanaladi.

Jumladan bog`cha yoshidagi bolalarda ham autizmning tez tez uchrayotgani pejdagog psixologlar, tarbiyachilar zimmasiga bir qator vazifalarni yuklayapti.

Hozirgi davrda butun dunyoda alohida yordamga muxtoj bolalarni o`rganish, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, nuqsonlar rivojlanishi ni oldini olish, maxsus yordamga muxtoj bolalarga ta`lim –tarbiya berish nuqsonlarini korreksiyalash boyicha ko`plab ishlar olib borilmoqda

Autizm (grekcha «autos» – «o`zim» degan so`z) – bu ruhiyatning o`ziga xos holati bo`lib, bemor tashqi olam, atrofdegilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg`izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so`zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o`z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o`xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog`liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o`rin tutadi.

Ma`lumotlarga ko`ra hozirda dunyodagi har 88 ta bolaning birida autizm kuzatilishi mumkin. Bunday bolalar tashqi ko`rinishidan boshqalardan farq qilmaydi, faqat u o`zgacha fikrlaydi. Autizm sindromiga chalingan bolalarning soni ortib borishi tibbiyot hodimlari psixiotorlar, psixologlar, pedagoglar va otionalarning bu muammoga chuqur yondashuvlarini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, shuningdek ularni korreksiyalashning eng optimal variantlarini

ishlab chiqishga urinilmoqda.

Autizm- atamasi 40 yil oldin kirib kelgan. Bu sindromning kelib chiqish sabablari va davolash usullari hali to`liq aniqlanmagan. Ko`plab olimlarning fikriga ko`ra bu kasallikning kelib chiqishiga onaning homiladorlik

davrida oqsil miqdorining kamayib ketishi, qo`rg`oshin va simobning ortib ketishi sababli bolaning nerv sistemasi zararlanishini ta`kidlashmoqda. Bu sindrom keyinchalik orttirilmaydi, balki shu sindrom bilan dunyoga keladi. So`nggi yillarda mazkur sohada erishilayotgan ijobiy o`zgarishlar psixologlar, pedagoglar hamda turli soha vakillarining yangi yo`nalishlardagi hamkorlik faoliyati bilan chambarchas bog`liq. Autizm sindromiga chalingan bolalar jamiyat institutsional tuzilmasida muqim o`rnashib ulguranganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institut sanaladi.

Autizm - miya faoliyatining buzilishi bo`lib, atrofdagilar bilan bo`ladigan muloqot chog`ida ularda turli muammolar kelib chiqadi. Ushbu kasallikka erta tashhis qo`yilishi bemorlarga jamoa orasida o`z o`rnini topishga yordam beradi. Millat, elat, madaniyat, din va ijtimoiy tabaqa tanlamaydigan bu sindrom ayollarga nisbatan erkaklarda ko`p uchraydi.

Autizm asosan 3 yoshgacha bolalarda aniqlash mushkul bo`lgan holatda uchraydi. Bu quyidagilarda ko`rinadi:

1 yoshgacha “gu-gu” lamaydi, 16 oygacha hech bir so`z aytmaydi, 2 yoshgacha ikkita so`zdan jumla tuza olmaydi; nutqqa ega bo`lmaydi; odamlar yoki hayvonlar harakatiga, turli tovushlarga taqlid qilmaydi, barobar bo`lmagan ohangda gapiradi ( tovush ohangi va tezligi buzilgan bo`ladi, robot singari “qotib qolgan nutq” da so`zlaydi ); kishilik olmoshini qanday eshitsa, shundayligicha takrorlaydi, bitta jumlaning takrorlayveradi ( exolaliya).

Noverbal kommunikatsiya rivojlanmaydi jumladan: bola 1 yoshgacha predmetlarni ko`rsatib bera olmaydi, imo- ishorani qo`llay olmaydi; hech bir so`z, imo-ishoralardan foydalanmaydi, shunchaki katta odamning qo`lidan tutib predmet oldiga olib boradi va unga shu narsani uzatishlarini kutadi, tanishishga qiziqishini namoyon qilmaydi, atrofga butkul befarqlikni his qiladi, odamlarning ko`ziga qaramaydi ( yoki juda kam hollarda qaraydi).

Idrok etishda quyidagilar ko`zga tashlanadi: bola uning ismini aytib chaqirsangiz, javob qilmaydi: so`zlayotgan gapingizni tushunmaydi ( uni shovqin sifatida idrok etadi ); huddi kar odam kabi tasavvur uyg`otganicha baland tovushlarga befarqlikni namoyon etadi; muayyan tovushlarga esa juda ta`sirchan ( masalan, kuchukning vovullashidan quloqlarini berkitadi); o`zining oynadagi aksini tanimaydi.

Axloqning boshqa xususiyatlari: predmet yoki so`zlarga diqqatini jalb qila olmaydi (diqqatini juda kam muddatga jamlaydi); uzoq vaqt davomida bitta tana harakatini takrorlaydi (masalan, u yoqdan bu yoqqa chayqaladi); vaqti-vaqti bilan kuchli g`azabni his qiladi va namoyon etadi; bitta predmetga uzoq vaqt tikilib turishi mumkin; agar kimdir odatiy hodisalar oqimini

o`zgartirmoqchi bo`lsa qarshilik ko`rsatadi. Ko`pincha ota- onalar farzandi 3 yoshda bo`lsa ham, gapirmayotganligini, boshqa bolalardan ajralib turishini sezib qolishadi.

Ayrim hollarda bolalar yaxshi gapirib ketishadi, biroq vaqt o`tishi bilan ularda nutq buzilishi kuzatiladi.

Autizm sindromi bilan bog`liq bo`lgan bog`cha yoshidagi bolalarda asosiy psixologik muammolar quyidagilardan iborat:

- 1) Bolalarda intellektual layoqat past bo`ladi;
- 2) Atrofdagi muhit va insonlarga nisbatan befarqlik;
- 3) Keyinchalik bunday bolalarda epileptik tutqanoqlar kuzatilishi mumkin.

4) 40- 70 % bolalarda uyqu bilan bog`liq muammolar yuzaga keladi. Ohirgi 10 yil ichida autizm sindromiga chalingan bolalar soni 10 barobarga oshgan. Bu sindrom avvaliga 100 000 kishidan 3-4 tasida namoyon etilgan bo`lsa , 2000- yilga kelib 10000 kishidan 5-20 tasida uchragan, 2008- yilga kelib esa, har 150 boladan biriga autizm sindromi tashhisi qo`yilgan.

**Leo Kannerning** ta`rifiga ko`ra autizm bosh miya rivojlanishida buzilish paydo bo`lishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy moslashuv va muloqotchanlikning qiyinligi , qiziqishlarning chegaralanishi va qaytariladigan harakatlar bilan namoyon bo`ladigan umrbod saqlanib qoluvchi asab sistemasi kasalliklaridan biri hisoblanadi. 1943 yilda u

davolash amaliyoti davomida 11 bolaning xulq- atvori, yurish turishi da o`xshash belgilarni kuzatib , “ilk yoshdagi bolalar autizmi “ atamasini kiritdi.

Ayrim olimlarning fikriga ko`ra autizm irsiy kasallik bo`lib hisoblansa, boshqalari esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini takidlaydilar. 1944 yilda Gans Asperger o`zining “Autist psixopatlar bolalik davrida” va Leo Kannerning “Autisticheskie narusheniya emotsional`nogo kontakta” asarida bu sindrom belgilari haqida ma`lumot bergan. Ularda yozilishicha autizm sindromiga chalingan bolalarda quyidagi belgilar kuzatiladi:

Autizmning asosiy belgisi real hayotni qabul qilishning buzilishi hisoblanadi. Nutqi juda sekin rivojlanadi. Autizm sindromli bola hech kim bilan muloqotga kirishishni istamaydi.

Bola yangilikdan , atrofidagi o`zgarishlardan qo`rqadi, doim bir hil harakatni takrorlaydi. Mimika va imo-ishoralarning yo`qligi. Bola juda kam kuladi va suhbatdoshining ko`ziga qaramaydi. Muloqotga kam kirishadi. Boshqa insonlar hatto ota- onasiga ham e`tibor bermaydi. Qiziqishlari cheklangan bo`ladi. O`z- o`zi bilan o`ynaydi. Atrofdagi muhit o`zgarsa jazavaga tushadi.

Bitta harakatni doim takrorlashga harakat qiladi. E`tiborini faqatgina bir narsaga qaratadi.

Autik bolalarning jismoniy jihatdan sog`lomligi uning psixik rivojlanishi bilan chambarchas bog`liq. Autik bolalar bilan olib boriladigan ishlar yillar mobayniga cho`zilishini doim yodda tutishimiz lozim. Psixologik ishlarning asosiy qismini bola bilan olib boriladigan mashg`ulotlar tashkil etadi. Bunday mashg`ulotlarda psixolog autik bolaga atrofdagi odamlar bilan aloqa qilishni ancha faol va murakkab shakllarini yaratishi lozim.

Xulosa o`rinida shuni aytish mumkinki mashg`ulotlarda egallangan yangi tajribalar asta-sekin mustahkamlanadi va ko`nikmalarga aylanib boradi. Psixologning yordami bilan yoshi katta bo`lgani sari ayniqsa yosh inqirozlari davrida, hayotning murakkab sharoitlariga o`tishida muhim o`rin tutadi. Avvalo mashg`ulotlar yakka tarzda olib boriladi. Bunday bolalar bilan mashg`ulotlarni autik bolaning xususiyatlarini yaxshi biladigan va ta`limning an`anaviy metodlarini tegishli ravishda moslashtira oladigan psixolog va pedagoglar olib borishlari lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. I. Nazarov Autizm kasallikini erta aniqlashda va davolashda davo choralarini ishlab chiqarish va davo samaradorligini oshirish. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1601
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Autizm>